

**BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI  
(2020- yil yanvar-iyul oylari uchun dastlabki ma`lumot)**

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020- yil yanvar- iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 462,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019 - yilning mos davriga nisbatan 262,3 mln. AQSh dollariga yoki 36,2 % ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
VA BALANSI  
(yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari)**



*Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o`rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



**BUXORO  
VILOYATI  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
ENG YUQORI  
ULUSHGA EGA  
BO`LGAN  
DAVLATLAR  
(2020- yil  
yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari, ulushi,  
% da)**

TSA da eksport hajmi 134,8 mln. AQSh dollariga (19,2 % ga kamaydi) va import hajmi 328,0 mln. AQSh dollariga (41,3 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 193,3 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	145,1	19,3	125,8	31,3
Xitoy Xalq Respublikasi	63,6	3,7	59,9	13,7
Turkmaniston	54,1	3,4	50,7	11,7
Eron Islom Respublikasi	48,9	41,1	7,8	10,6
Turkiya	41,5	7,8	33,7	9,0
Afg`oniston	17,9	17,9	-	3,9
Qozog`iston	17,2	8,2	9,0	3,7
Qirg`iz Respublikasi	15,3	15,1	0,2	3,3
Koreya Respublikasi	13,4	0,2	13,2	2,9
Germaniya	9,3	0,2	9,1	2,0

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Buxoro, jahonning 50 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (31,3 %), Xitoy Xalq Respublikasida (13,7 %), Turkmanistonda (11,7 %), Eron Islom Respublikasida (10,6 %), Turkiyada (9,0 %), Afg`onistonda (3,9 %) Qozog`istonda (3,7 %), Qirg`iz Respublikasida (3,3 %) Koreya Respublikasida (2,9 %) va Germaniyada (2,0 %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Turkmaniston va Qozog`iston bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qozog`iston, Afg`oniston, Qirg`iz Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (145,1 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (63,6 mln. AQSh dollari), Turkmaniston (54,1 mln. AQSh dollari), Eron Islom Respublikasi (48,9 mln. AQSh dollari), Turkiya (41,5 mln. AQSh dollari) va Afg`oniston (17,9 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



BUXORO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari)

Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>228,2</b>	<b>156,0</b>	<b>145,1</b>
Eksport	11,7	16,8	19,3
Import	216,5	139,2	125,8
Saldo	-204,8	-122,4	-106,5
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>76,1</b>	<b>125,3</b>	<b>63,6</b>
Eksport	18,6	22,2	3,7
Import	57,5	103,1	59,9
Saldo	-38,9	-80,9	-56,2
<b>Turkmaniston</b>	<b>69,9</b>	<b>174,1</b>	<b>54,1</b>
Eksport	1,4	3,4	3,4
Import	68,5	170,7	50,7
Saldo	-67,2	-167,3	-47,3
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>57,4</b>	<b>57,2</b>	<b>48,9</b>
Eksport	49,7	35,6	41,1
Import	7,7	21,6	7,8
Saldo	42,0	14,0	33,3
<b>Turkiya</b>	<b>12,0</b>	<b>33,5</b>	<b>41,5</b>
Eksport	1,1	3,0	7,8
Import	10,9	30,5	33,7
Saldo	-9,8	-27,5	-25,9
<b>Afg`oniston</b>	<b>2,1</b>	<b>29,3</b>	<b>17,9</b>
Eksport	2,0	29,2	17,9
Import	0,1	0,1	-
Saldo	1,9	29,1	17,9
<b>Qozog`iston</b>	<b>19,4</b>	<b>27,9</b>	<b>17,2</b>
Eksport	10,6	16,9	8,2
Import	8,8	11,0	9,0
Saldo	1,8	5,9	-0,8

2020-yil  
yanvar-iyul

BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



BUXORO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari)

Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>2,2</b>	<b>25,1</b>	<b>15,3</b>
Eksport	1,9	25,0	15,1
Import	0,3	0,1	0,2
Saldo	1,6	24,9	14,9
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>3,9</b>	<b>24,8</b>	<b>13,4</b>
Eksport	0,6	0,3	0,2
Import	3,3	24,5	13,2
Saldo	-2,7	-24,2	-13,0
<b>Germaniya</b>	<b>10,6</b>	<b>18,7</b>	<b>9,3</b>
Eksport	-	-	0,2
Import	10,6	18,7	9,1
Saldo	-10,6	-18,7	-8,9
<b>Tojikiston</b>	<b>0,7</b>	<b>2,1</b>	<b>4,7</b>
Eksport	0,3	1,7	4,7
Import	0,4	0,4	-
Saldo	-0,1	1,3	4,7
<b>Ukraina</b>	<b>6,0</b>	<b>7,7</b>	<b>3,5</b>
Eksport	0,5	1,7	1,8
Import	5,5	6,0	1,7
Saldo	-5,0	-4,3	0,1
<b>Polsha</b>	<b>1,0</b>	<b>2,7</b>	<b>3,5</b>
Eksport	0,5	1,0	3,4
Import	0,5	1,7	0,1
Saldo	-	-0,7	3,3
<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>8,3</b>	<b>2,6</b>	<b>3,4</b>
Eksport	0,2	0,3	0,3
Import	8,1	2,3	3,1
Saldo	-7,9	-2,0	-2,8

2020-yil  
yanvar-iyul

BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI




**BUXORO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari)**

Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Ozərbayjon</b>	<b>0,3</b>	<b>0,2</b>	<b>2,4</b>
Eksport	0,3	0,2	0,5
Import	-	-	1,9
Saldo	0,3	0,2	-1,4
<b>Estoniya</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>1,6</b>
Eksport	-	-	1,6
Import	-	-	-
Saldo	-	-	1,6
<b>Belgiya</b>	<b>2,2</b>	<b>3,6</b>	<b>1,5</b>
Eksport	-	-	-
Import	2,2	3,6	1,5
Saldo	-	-3,6	-1,5
<b>Iroq</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>1,5</b>
Eksport	-	-	0,4
Import	-	-	1,1
Saldo	-	-	-0,7
<b>Avstriya</b>	<b>0,4</b>	<b>0,3</b>	<b>1,3</b>
Eksport	-	-	-
Import	0,4	0,3	1,3
Saldo	-0,4	-0,3	-1,3
<b>Italiya</b>	<b>0,8</b>	<b>0,2</b>	<b>1,2</b>
Eksport	-	-	-
Import	0,8	0,2	1,2
Saldo	-0,8	-0,2	-1,2



Viloyatimizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-iyul oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 53,1 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019 - yilning mos davriga nisbatan ulushi 1,5 % ga kamaygan.

BUXORO  
VILOYATINING  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASIDA  
MDH  
MAMLAKATLARI  
VA BOSHQA  
XORIJIY DAV-  
LATLARNING  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020- yil yanvar-iyul oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan oshgan (1,6 % ga) va jami TSA dagi ulushi 46,9 % ni tashkil etdi.

## BUXORO VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar - iyul)

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida mamlakatning eksportyorlar soni 298 tani tashkil etib, ular tomonidan 134,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 19,2 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 82,5 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (23,9 %), mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar (16,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (6,2 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

XSST  
BO`YICHA  
EKSPORT  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-iyul,  
ulushi, % da)





BUXORO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>134,8</b>	<b>53,3</b>	<b>81,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,3	10,3	5,1	11,4	19,3	6,2
Ichimliklar va tamaki	1,1	1,1	-	0,8	2,1	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	43,8	4,8	38,9	32,5	9,1	47,8
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	14,4	1,1	13,3	10,7	2,0	16,3
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	3,7	1,9	1,8	2,7	3,5	2,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	1,6	1,4	0,2	1,2	2,6	0,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	39,7	20,2	19,5	29,5	38,0	23,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,2	0,2	-	0,2	0,4	-
Turli xil tayyor buyumlar	9,8	9,4	0,4	7,2	17,6	0,5
Xizmatlar	5,2	2,9	2,2	3,8	5,5	2,7

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
EKSPORT  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-iyul)**

2020-yil  
yanvar-iyul

BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi xizmatlar hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallarga to`g`ri kelmoqda.

XSST tarkibi	2019- yilning yanvar-iyuliga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>80,8</b>	<b>80,3</b>	<b>81,2</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	39,0	30,0	99,4
Ichimliklar va tamaki	-	2,3 b.	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	80,3	73,3	81,3
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	46,1	54,4	45,5
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	79,8 b.	40,1 b.	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	174,8	165,6	2,8 b.
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	160,2	141,6	185,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	42,8	3,5 b.	3,2
Turli xil tayyor buyumlar	2,4 b.	3,9 b.	22,9
Xizmatlar	47,7	53,3	41,9

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(2020- yil  
yanvar-iyul)**



2020- yil yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-iyuliga nisbatan, ichimliklar va tamaki, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o`shish kuzatildi.

**EKSPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar-iyul,  
% da)**

XSST tarkibi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,4	19,3	6,2
Ichimliklar va tamaki	0,8	2,1	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	32,5	9,1	47,8
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	10,7	2,0	16,3
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	2,7	3,5	2,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	1,2	2,6	0,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	29,5	38,0	23,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,2	0,4	-
Turli xil tayyor buyumlar	7,2	17,6	0,5
Xizmatlar	3,8	5,5	2,8



**XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-iyul)**

XSST bo`limi nomi	Mln. AQSh dollari	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	10,0	32,8
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,4	-
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	-	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,1	2,6
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	0,1	-
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	1,1	2,2 b.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,1	-
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari</b>		
To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	-	-
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	-	-
Metall rudalari va metall parchalari	1,3	6,5 b.
Qog`oz massasi va makulatura	-	-
Moy olinadigan urug`lar va mevalar	0,1	12,5
<b>Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar</b>		
Tabiiy yoki sun`iy gaz	-	-
Elektr toki	-	-
Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar	14,4	46,1
<b>Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar</b>		
O`simlik moylari va yog`lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	3,7	79,8 b.
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar</b>		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,4	4,0 b.
Noorganik kimyo moddalari	0,1	5,4 b.
O`g`itlar	0,1	-
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,2	66,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,2	-




**XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-iyul)**

<b>Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari</b>		
To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar	2,5	-
Rangli metallar	-	-
Cho`yan va po`lat	-	-
Metalldan tayyorlangan buyumlar	1,3	8,1 b.
Ruda bo`limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Avtomobillar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	0,02	4,8
Sanoat uchun maxsus bo`limgan mashinalar va ularning detallari	-	-
Aniq sohalarda uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar	-	-
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	8,3	4,2 b.
Poyabzal	0,1	4,8 b.
Har xil tayyor buyumlar	1,5	88,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Yo`l anjomlari, sumkalar va shunga o`xshash buyumlar	0,4	115,0
<b>Boshqa tovarlar</b>		
Maxsus operatsiyalar va turlariga ko`ra tasniflanmagan tovarlar	-	-
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	2,8	58,3
Safarlar (turizm)	1,3	31,0
Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari	-	-
Moliya xizmatlari	0,6	50,0
Boshqa biznes xizmatlari	0,4	90,6

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yil yanvar-iyuldagi 39,9 % dan 2020- yil yanvar-iyulida 39,5 % ni tashkil etdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 60,5 % ni tashkil etdi.

**MDH  
VA BOSHQA  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, % da)**




2020- yilning yanvar-iyul oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Eron Islom Respublikasi (eksport umumiy hajmining 30,5 % i), Rossiya Federatsiyasi (14,3 %), Afg'oniston (13,4 %), Qirg'iz Respublikasi (11,2 %), Qozog'iston (6,1 %), Turkiya (5,8 %) va Tojikiston (3,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 84,8 % ni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasining bir pog'onaga tushishi hisobiga, Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.


Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019- yilning mos davriga nisbatan 31 davlatdan 32 davlatga ko'paydi.

**VILOYAT  
EKSPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020- yil  
yanvar-iyul,  
% da)**



**BUXORO  
VILOYATINING  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLARGA  
AMALGA  
OSHIRGAN  
EKSPORTI  
HAJMI VA  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(yanvar-iyul)**

Davlatlar	Mln.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rne	
	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil
Eron Islom Respublikasi	35,6	41,1	71,5	115,4	2	1
Rossiya Federatsiyasi	16,8	19,3	143,6	114,9	4	2
Afg'oniston	29,2	18,0	97,3 b.	61,6	5	3
Qirg'iz Respublikasi	25,0	15,1	13,1 b.	60,4	9	4
Qozog'iston	16,9	8,2	159,4	48,5	7	5
Turkiya	3,0	7,8	2,7 b.	2,6 b.	6	6
Tojikiston	1,7	4,7	5,7 b.	2,8 b.	3	7
Xitoy	22,2	3,7	119,3	16,7	17	8
Polsha	1,0	3,4	2,0 b.	3,4 b.	21	9
Turkmaniston	3,4	3,4	2,4 b.	100,0	1	10
Ukraina	1,7	1,8	3,4 b.	105,9	11	11
Estoniya	-	1,6	-	-	43	12
Bosniya va Gersogovinna	-	0,7	-	-	16	13
Litva	0,3	0,7	50,0	2,3 b.	34	14
Ozabayjon	0,2	0,5	66,7	2,5 b.	31	15
Singapur	0,5	0,4	166,7	80,0	28	16
Iroq	-	0,4	-	-	44	17
Makedoniya Respublikasi	-	0,3	-	-	18	18
Belarus	0,3	0,3	150,0	100,0	21	19
Pokiston	0,2	0,2	66,7	100,0	46	20

**XIZMATLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(yanvar-iyul,  
ulushi, % da)**


Xizmatlar eksporti hajmi 5,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 3,8 % ini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 52,3 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (53,9 %) va turizm (25,7 %) xizmatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Shu bilan birga transport xizmatlari (53,9 %), safarlar (turizm) (25,7 %), moliyaviy xizmatlar (12,7 %) va boshqa xizmatlar umumiy hajmda 7,8 % ni tashkil etgan.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 10,0 mln. dollar qiymatli 22,8 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 21,4 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 6,4 mln. AQSh dollariga teng 18,3 ming tonna sabzavot, shuningdek, 3,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi 4,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI  
(2020 yil  
yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari)**

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (65,0 %), Rossiya Federatsiyasi (10,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (7,0 %) va Belarus Respublikasi (7,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA -  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARINING  
EKSPORT  
GEOGRAFIYASI  
(yanvar-iyul)

Davlatlar	2019- yil			2020- yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
Qozog`iston	48,0	17,7	56,5	14,6	6,5	65,0
Afg`oniston	0,1	0,1	0,3	3,7	0,7	7,0
Rossiya Federatsiyasi	0,6	0,3	1,0	2,0	1,0	10,0
XXR	2,3	1,6	5,1	1,1	0,7	7,0
Belarus Respublikasi	2,0	1,6	5,1	0,6	0,7	7,0
Iroq	-	-	-	0,4	0,1	1,0
Qirg`iz Respublikasi	3,1	12,8	40,9	0,3	0,4	4,0
Boshqa davlatlar	3,6	1,0	3,2	0,1	0,4	4,0

\*-qiymat ifodasidan

TO`QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI

To`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko`rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 64,2 mln. AQSh dollarlik to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 68,9 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan, 3,2 % ga kamaygan.



TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)	Tovar nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	1,1	2,0	8,3
	Gilamlar	0,3	0,1	0,2
	Boshqa to`qimachilik mahsulotlari	2,0	1,7	1,5
	Paxtadan gazlamalar	73,0	64,2	70,6
	Ipak va ipak mahsulotlari	2,9	1,6	1,0


Viloyatning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

DAVLATLAR KESIMIDA TO`QIMACHI- LIK MAHSULOT- LARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-iyul, ming. AQSh dollari)	Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
	Qirg`iz Respublikasi	114,1	128,4	63,2
	Rossiya Federatsiyasi	98,8	129,7	58,9
	Qozog`iston	36,6	49,1	89,4
	Eron Islom Respublikasi	-	-	0,6

## BUXORO VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-iyul)

2020- yil yanvar-iyul oylarida import hajmi 328,0 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 58,7 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, yoqilg'i mahsulotlari (43,5 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (22,6 %), kimyoviy vositalar (9,5 %) hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (7,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
IMPORT  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-iyul,  
ulushi, % da)

- |  |   |
|--|---|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 2,9 %                                       | Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari - 3,5 %                         |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash mahsulotlar - 43,5 %               | Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar-0,1 %           |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 9,5 % | Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 7,5 % |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalar - 22,6 %   | Turli xil tayyor buyumlar - 10,3 %  |
| Xizmatlar-0,1 %  |   |



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-iyulida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 230,4 mln. AQSh dollariga kamaydi va 328,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>328,0</b>	<b>192,6</b>	<b>135,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,4	8,1	1,3	2,9	4,2	0,9
Ichimliklar va tamaki	0,1	-	0,1	-	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	11,6	9,3	2,3	3,5	4,8	1,7
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	142,7	141,3	1,3	43,5	73,4	1,0
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	0,5	0,5	-	0,1	0,2	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	31,1	12,9	18,2	9,5	6,7	13,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	24,5	13,7	10,8	7,5	7,1	8,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	74,1	5,9	68,2	22,6	3,1	50,4
Turli xil tayyor buyumlar	33,8	0,8	33,0	10,3	0,4	24,4
Xizmatlar	0,2	-	0,2	0,1	-	0,2

Importning eng katta ulushi, jumladan, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar (73,4 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (6,7 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (3,1 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari (4,8 %) MDH mamlakatlariga

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJY  
DAVLATLARDAN  
IMPORT TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-iyul)**



to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush asosan mashina va transport asbob-uskunalar (50,4 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (13,4 %), hissasiga to'g'ri keladi.

MDH VA  
BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORTNING  
O'ISH  
SUR'ATLARI  
(2020- yil  
yanvar-iyul)

XSST tarkibi	2019- yil yanvar-iyuliga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>58,7</b>	<b>58,4</b>	<b>59,2</b>
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	-
Ichimliklar va tamaki	2,3 b.	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	189,5	170,5	3,5 b.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	50,8	50,4	3,5 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	146,3	2,2 b.	117,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	129,9	128,5	131,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	110,0	127,0	108,7
Turli xil tayyor buyumlar	115,1	71,8	116,8
Xizmatlar	55,1	-	52,4

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan nooziq-ovqat xomashyosi, yoqilg'idan tashqari importi 189,5 %, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari importi esa 129,9 % ni tashkil qildi.



**IMPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(2020- yil  
yanvar-iyul,  
ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,5	1,4	2,9
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	4,1	1,4	3,5
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	72,1	65,2	43,5
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	0,1	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	3,9	4,9	9,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	2,6	4,4	7,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	15,5	15,7	22,6
Turli xil tayyor buyumlar	1,0	6,8	10,3
Xizmatlar	0,2	0,1	0,1

**XSTT BO`YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-iyul  
2019- yil  
yanvar-iyuliga  
nisbatan)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o`zgarish sura`tlari, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3,9	75,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	0,3	-
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	-	-
Sabzavotlar va mevalar	0,1	16,7
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	-	-
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Ichimliklar	0,1	-
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari</b>		
Metall rudalari va metal parchalari To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	-	-
Probka va yog`och-taxtalar	-	-
Moy olinadigan urug`lar va mevalar	0,1	6,3
O`g`itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	7,8	4,3 b.
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	-	-
<b>Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar	142,7	50,8
Ko`mir, koks va briketlar	9,0	124,0

2020-yil  
yanvar-iyul

BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



**BUXORO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**XSTT BO`YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-iyul  
2019- yil  
yanvar-iyuliga  
nisbatan)**

Elektr toki	-	-
<b>Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar</b>		
O`simlik moylari va yog`lari	0,1	-
Hayvon va o`simlik moylari va yog`lari	0,5	3,0 b.
Hayvonlar moylari va yog`lari	-	-
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,2	81,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	8,4	99,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3,4	61,6
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,1	65,4
Organik kimyo moddalari	2,5	84,1
<b>Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari</b>		
Cho`yan va po`lat	-	-
Metaldan tayyorlangan buyumlar	5,6	122,1
To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar	0,2	2,3 b.
Probka va yog`ochdan tayyorlangan buyumlar	-	-
Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar	-	-
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	-	-
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulavlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	-	-
Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	5,0	127,9
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	-	-
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Blokli binolar, suv o`tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	-	-
Har xil tayyor buyumlar	0,3	2,4 b.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o`xshash mahsulotlar	28,2	59,5
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	-	-
<b>Boshqalar</b>		
Maxsus operatsiyalar va turlarga ko'ra tasniflanmagan tovarlar	-	-

2020-yil  
yanvar-iyul


**BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI**



Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga sabzavot va mevalar (83,3 % ga pasaygan), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (24,4 % ga) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar (38,4 %) hamda organik kimyo moddalari (15,9 %) bevosita ta'sir etgan.

MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLAT-  
LARDAN  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-iyul,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulush % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasi umumiy import hajmida 38,4 % ulushi bilan Xitoy Xalq Respublikasini (18,3 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.



**BUXORO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**




**TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTIDAGI  
YIGIRMATA  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
(yanvar-iyul)**

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O`shish sur`ati, % da		O`rni	
	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil
Rossiya Federatsiyasi	139,2	125,8	64,3	90,4	5	1
Xitoy Xalq Respublikasi	103,1	59,9	179,3	58,1	6	2
Turkmaniston	170,7	50,7	2,5 b.	29,7	4	3
Turkiya	30,5	33,7	2,8 b.	110,5	7	4
Koreya Respublikasi	24,5	13,2	7,4 b.	53,9	8	5
Germaniya	18,7	9,1	176,4	48,7	10	6
Qozog`iston	11,0	9,0	125,0	81,8	11	7
Eron Islom Respublikasi	21,6	7,8	2,8 b.	36,1	9	8
Belarus Respublikasi	2,3	3,1	28,4	134,8	17	9
Ozarbajjon	-	1,9	-	-	32	10
Ukraina	6,0	1,7	109,1	28,3	14	11
Belgiya	3,6	1,5	163,6	41,7	16	12
Avstriya	-	1,3	-	-	35	13
Italiya	0,2	1,2	25,0	6,0 b.	34	14
Iroq	-	1,1	-	-	38	15
BAA	1,6	0,7	5,3 b.	43,8	20	16
Hindiston	0,8	0,6	4,0 b.	75,0	23	17
Gonkong	0,2	0,6	-	3,0 b.	30	18
Fransiya	1,0	0,5	2,5 b.	50,0	22	19
Bolgariya	-	0,4	-	-	36	20

2019- yil bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikda o`zgarish kuzatilmadi.

2020- yil yanvar-iyul oylari yakuni bo'yicha Buxoro viloyati tomonidan 56 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**VILOYAT  
IMPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020- yil  
yanvar-iyul,  
% da)**



Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya va Qozog'iston) jami importning 91,9 % ini tashkil qiladi, bu 301,4 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

**Buxoro viloyati  
Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi.  
Tel.:71-230-83-22**